



EFFECTIVE APPLICATION OF FORMS AND TYPES OF ORGANIZATION OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES

Nurmatova Madina Odiljon qizi
Qo'qon DU v.b. dotsenti.

Islomova Maxsudaxon
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 05/24-guruh talabalari

Abstract

This article deals with the issues of effective application of forms and types of organization of education in primary grades, coverage of students, increased interest of students in the lesson, organization of students' activities. The pedagogical significance of the organization of the educational process is analyzed, taking into account the age, psychological and individual characteristics of primary grade students. Forms of education, such as classroom, individual and independent work, are based on the role of students in the development of knowledge, skills and qualifications.

Keywords: Primary education, forms and types of organization of education, types and structure of the course, non-standard lesson.

Introduction

Boshlang'ich ta'lim — bu shaxs kamolotining poydevoridir. Bu bosqichda o'quvchilarda nafaqat bilim, balki o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanishi lozim. Zamonaviy pedagogika o'qituvchidan dars o'tishning an'anaviy qoliplaridan chiqib, ta'lim shakllarini o'rganishni talab etadi.

Ma'lumki, ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlari yo'nalishlari maydonga kelishi, ijtimoiy namuna bo'lishga va har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi. Ta'lim jamiyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida



bilim olishga bo'lgan dastlabki munosabatni shakllantirish, ularning aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini turli xil metodlar qo'llab, samarali tashkil etish, ta'lim shakllari va turlaridan maqsadga muvofiq foydalanish bugungi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi ham boshqa atamalar singari ilmiy-pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Ta'limni tashkil etish shakli didaktik kategoriya bo'lib, ta'lim jarayonining alohida tuzilishi, mashg'ulotning aniq turi (dars, ekskursiya va boshqalar) tushuniladi.

Ta'limni tashkil etish shakli –bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, vaqtda, ma'lum qoida, me'yor va maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim shakllari va turlarini samarali qo'llash usullari yoritilgan. Dars jarayonini tashkil etishda noan'anaviy yondashuvlar va interfaol metodlarning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta'limning bir qancha shakllari ko'rsatiladi, jumladan, individual, sinf-dars, individual-guruhli, leksiya-seminar, sinfdan tashqari kabilar. Ular o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra qamrab olishi, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib o'quv faoliyatini tashkil etish, jamoaviy va individual shakllari va boshqa xususiyatlarga ko'ra uch asosiy turga bo'linadi:

1) Individual-ta'limning bu shaklida o'quvchining individual imkoniyatlari qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Ushbu ta'lim shaklida o'qituvchi o'quvchi bilan alohida ishlaydi, bu orqali o'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Bundan tashqari, individual ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

2) Sinf-dars tizimi hozirgi vaqtda keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu tizimni Yan Amos Komenskiy tomonidan tomonidan „Buyuk didaktika“ asarida asoslab berilgan. Sinf-dars tizimida darslar reja va ma'lum dasturga muvofiq o'tadi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqichma rivojlantirishga qaratiladi. Maktablarda sinf-dars tizimi ommalashgan, (boshlang'ich sinflarda asosan shunday dars tizimi tashkil etiladi) bunda o'quvchilarda birgalikda ishlash, faol muloqot qilish va o'z fikrini bayon etish ko'nikmalari shakllantiriladi.



3)Ma'ruza – seminar tizimi o'qitishning alohida shakli hisoblanadi. Bu tizim oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi jarayonlarda qo'llaniladi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, munozara va muhokama ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini birgalikda olib borish orqali ta'lim jarayoni nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ta'limni tashkil etish shakllari va turlaridan tashqari, dars ham o'z navbatida turlarga va tuzilishga bo'linadi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu o'qituvchi rahbarligida belgilangan vaqt mobaynida o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim jarayoni hisoblanadi.

XX asr o'rtalarida o'quvchilarning darslarga qiziqishi sustlasha boshladi, bu muammoni hal qilishda nostandart darslarga tashkil etila boshlandi.

Nostandart dars-an'aniy dars tuzilshidan keskin farq qiladi, ushbu darsda har xil qiziqarli metodlar, o'yinlar teatrlashtirilgan sahnalardan foydalanib dars tashkil etiladi. Hozirda maktabning nafaqat boshlang'ich sinflarida, balki yuqori sinflarda va bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida ham ushbu dars turidan foydalaniladi.

Mazkur dars orqali o'quvchilarning faolligini oshadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlik va ijtimoiy ko'nikmani rivojlantiradi, natijada o'quvchilarda bilimni va dunyoni o'rganish qobiliyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim shakllari va turlarini to'g'ri tanlash — bu shunchaki dars o'tish emas, balki bolaning intellektual salohiyatini ochish kalitidir. An'anaviy sinf-dars tizimini zamonaviy interfaol metodlar, loyihaviy ta'lim va o'yinli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning bilim o'zlashtirish koeffitsientini sezilarli darajada oshiradi. Eng muhimi, bunday yondashuv bolada umrbod o'qishga bo'lgan ishtiyoqni va mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Boshlang'ich sinflarda ta'limni tashkil etish shakllari va turlarini maqsadga muvofiq va samarali qo'llash o'quvchining darsga qiziqishini orttirish, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil faoliyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonini turli shakllar va ulardan oqilona foydalangan holda tashkil etish boshlang'ich ta'limning samaradorligini maksimal darajada oshiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X. Xodjayev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun darslik „Sano-standart” nashriyoti Toshkent-2017
2. O’ J. Yo’ldoshev, A. Ziyayev, M. Yusupov vb „Umumiy pedagogika”. -T.: „Fan va texnologiya”, 2017
3. Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova G, SH. Tashmetova. Umumiy pedagogika .Darslik.-T.: TDPU. 2012.
4. Pedagogika. //M. To’xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik.-T.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
5. Hoshimov K, Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi.-T.: O’qituvchi ,1996.
6. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.-T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005
7. Nurmatova, M. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology, 3 (2023): 151–154.
8. Nurmatova, M.O.Q. "Is’hoqxon Ibratning ilm va ma’rifat sohasidagi xizmatlari." Academic Research in Educational Sciences, 3. NUU Conference 2 (2022): 419–422.
9. Нурматова, М.О.К. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." Молодежь и XXI век (2015).
10. Нурматова, М. "Учитель-руководитель воспитания." Актуальные научные исследования в современном мире, 8–2 (2018): 58–60.
11. Нурматова, М. "Произведение «Одоб ас-салихин» – настольная книга с вежливости и правил поведения." Актуальные научные исследования в современном мире, 5–6 (2018): 53–55.